

INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION YONDOSHUVLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR

Baxromova Guljamol Dilshodjon qizi, baxromovaguljamol97@gmail.com,
+99890 504 62 82

Xalqaro Nordic universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada hozirgi kunda inklyuziv ta’lim muhitini yaratishga yordam beradigan zamonaviy tendentsiyalar, texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar haqida umumiy ma'lumot berilgan. Turli xil maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun ta’lim resurslaridan foydalanish jarayonini samarali tashkil etish borasida qo‘llaniladigan innovatsion metodlar, grafik organayzerlar, moslashtirilgan o‘quv materiallari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kabi keng ko‘lamli masalalarni qamrab oluvchi mazkur maqola ilmiy va nazariy amaliyotlar tahliliga asoslangan. Maqola inklyuziv ta’limni tashkil etishda innovatsion yondashuvning asosiy muammolarini aniqlash hamda pedagogic yechim sifatida tegishli o‘qitsht metodikasini ishlab chiqishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, innovatsion yondashuv, kubik metodi, Venn diagrammasi, innovatsiya, tendensiya, samaradorlik, metodlar, induvidial, jamoaviy munosabat, alohida ta’lim ehtiyojiga ega o‘quvchi.

Аннотация

В этой статье представлен обзор современных тенденций, технологий и инновационных подходов, которые в настоящее время способствуют созданию инклюзивной образовательной среды. Данная статья, охватывающая широкий круг вопросов, таких как использование инновационных методов, графических организаторов, адаптированных учебных материалов, информационно-коммуникационных технологий для эффективной организации процесса использования образовательных ресурсов для учащихся с различными особыми потребностями, основана на анализе научных и теоретических практик. Статья направлена на выявление основных проблем

инновационного подхода к организации инклюзивного образования и поддержку разработки соответствующей методики обучения как педагогического решения.

Ключевые слова: инклюзивное образование, инновационный подход, кубический метод, диаграмма Венна, инновация, тенденция, эффективность, методы, индивидуальный, коллективный подход, учащийся с особыми образовательными потребностями.

Annotation

This article provides an overview of modern trends, technologies and innovative approaches that currently help create an inclusive educational environment. This article, covering a wide range of issues such as innovative methods used to effectively organize the process of using educational resources for students with different special needs, graphic organizers, adapted educational materials, the use of information and Communication Technologies, is based on the analysis of scientific and theoretical practices. The article is aimed at identifying the main problems of the innovative approach to the organization of inclusive education, as well as supporting the development of the appropriate teaching methodology as a pedagogical solution.

Keywords: inclusive education, innovative approach, cubic method, Venn diagram, innovation, trend, efficiency, methods, individual, collective attitude, student with special educational needs.

Hozirgi kunda dunyoda ro'y berayotgan murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda siyosatimizda amalga oshirilayotgan har bir islohot "Inson qadri uchun" tamoyili asosida amalga oshirilmoqda. Xalqimizning farovon hayot kechirishini yanada yaxshilash, iqtisodiyot va tadbirdorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash, yurtimizning barcha a'zosi uchun sifatli va samarali ta'lif muhitini yaratish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanilmoqda. Ayniqsa, xuddi biz kabi mamlakatimizning to'laqonli fuqarosi hisoblangan alohida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun ta'lif olish qonun bilan belgilandi.

Xususan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 50-moddasida: “Har kim ta’lim olish huquqiga ega. Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi” deb ko‘rsatib o‘tilgan [1].

Shu bilan birgalikda Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasining 66 hamda 70-maqсадида nogironligи bo‘lgan shaxslarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta’minlovchi inklyuziv ta’lim va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish, yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minlash, ta’limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta’lim olishini ta’minlash, hududlarda inklyuziv ta’lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish borasida aniq vazifalar belgilab berilganligi mamlakatimizda inklyuziv ta’lim dolzarb masala sifatida ko‘tarilganligining dalilidir [2].

Hozirgi vaqtda respublikamiz ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim jadal yo‘lga qo‘yilayotganligi bilan birgalikda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish uchun inklyuziv ta’lim tizimini tashkil etish, ularning ta’lim olishga bo‘lgan teng huquqlarini ta’minlash borasida birqancha kamchiliklar mavjud. Masalan, ularga misol tariqasida umumta’lim muassasalarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga inklyuziv ta’lim berish metodikasi ishlab chiqilmaganligi, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga inklyuziv ta’lim berishning sifati va samaradorligini aniqlash mezonlari ishlab chiqilmaganligi, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’lim oladigan ta’lim muassasalari zarur maxsus o‘quv adabiyotlari va metodik-qo‘llanmalar bilan yetarli darajada ta’minlanmaganligini keltirish mumkin [3].

Inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish, yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf qilish yuzasidan ta’lim jarayonini shakllantirishda innovatsion yondoshuvdan foydalanish ijobiy samara beradi. Innovatsion yondashuv mavjud ijtimoiy muhitga innovatsion o‘zgarishlar kiritishni rag‘batlantiruvchi o‘quv faoliyati jarayoni va uning natijasi hisoblanadi. Ta’limning mazkur yondashuvi ayrim inson va jamiyat oldida yuzaga kelayotgan muammolarga faol munosabatni rag‘batlantiradi.

Innovatsion yondashuv asosida o‘quvchilarni dars jarayoniga to‘liq qamrab olishning samarali metodlaridan biri “Debat” metodidir. Debat texnologiyasidan

mashg‘ulotlarda biror-bir mavzu yuzasidan ishtirokchilar o‘rtasida o‘zaro bahs uyushtirish, ularning o‘zaro fikr almashishlariga xizmat qiladi.

Yana bir samarali metodlardan biri “Kubik” grafik organayzeri. Bu grafik organayzer turli vaziyatlarni hosil qilish orqali mavzuning o‘rganilishini osonlashtirishga xizmat qiladi. Grafik organayzer mohiyatiga ko‘ra kubikning oltita cirrasida quyidagi ko‘rsatmalar o‘z ifodasini topadi:

- 1.Tasvirlang! Predmetni diqqat bilan ko‘zdan kechirib, uning nimaligini tasvirlab bering. Tasvirlash jarayonida predmetning rangi, shakli va hajmini aniq yoritishga e’tibor qarating.
- 2.Taqqoslang! Taqqoslash asosida predmetning nimaga o‘xshashi, nimadan keskin farqlanishini ayting.
- 3.Izohlang! Predmetning bunday tuzilma, hajm, shakl va rangga egaligining sabablarini tushuntiring. Predmet sizni nimalar haqida o‘ylashga majbur etyapti?
- 4.Tahlil qiling! Predmetning yasalish (yartilish) jarayoni qanday? (Predmetning yasalish jarayonini o‘ylab toping).
- 5.Qo‘llang! Predmetdan siz hayotiy jarayonlarda foydalana olasizmi? Undan qanday foydalanishingiz mumkin?
6. Asoslang! Predmetning amaliy qiymatini belgilovchi fikrlaringizni asoslang! Bu jarayonda ishonchli dalillar topishga harakat qiling! [4]

Mazkur texnologiya o‘quvchilarni muayyan muammoni olti tomondan turlicha yondashib, muhokama qilishga undaydi. Bu harakat muammo yechimini topishni tezlashtiradi. Bu esa alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilar uchun tafakkur va tasavvur qobiliyatlarini yanada rivojlantiradi.

Shuningdek, inklyuziv ta’limni tashkil etishda “Venn diagrammasi” grafik organayzeridan ham alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bola bilan individual ishlash maqsadida foydalanish mumkin. Misol uchun sog‘lom tengdoshlari munozaradagi predmetning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarini alohida-alohida tomonlariga yoritib bersa, alohida ehtiyojlari bo‘lgan bola ularni tinglab, predmetlarning umumiy, o‘xshash bo‘lgan xususiyatlarini diagrammaning umumiy ma’lumotlar yoziladigan qismiga tasvirlab berishi lozim.

Innovatsion usulda yondoshishda foydalanadigan metodlardan yana biri Virtual haqiqat texnologiyasidir. Bu texnologiyadan inklyuziv ta'limga ehtiyoji bor o'quvchilarga tajriba va ko'nikmalarga ega bo'lishga yordam beradigan real hayotiy vaziyatlarni yaratish uchun foydalaniladi. Bu metoddan ko'proq amaliy mashg'ulotlarda, georafiya, fizika, kimyo, texnologiya darslarida foydalanilsa samarali natijalarga erishish mumkin.

Yana bir metod sifatida bilim almashish platformalarini keltirish mumkin. Bunda o'quvchilar bir-birlari bilan bilim va tajriba almashishlari mumkin bo'lgan onlayn platformalar yaratish ko'zda tutiladi. Bu turli qobiliyatlarga ega bo'lgan inklyuziv ta'limga jalb etilgan o'quvchilarga bir-biridan o'rghanish va qo'llab-quvvatlovchi muhitda rivojlanish imkonini beradi.

Ta'limga o'yinlar orqali yondashuv metodida har xil turdag'i o'rghanish uchun moslashtirilgan didaktik o'yinlarni ishlab chiqiladi. Didaktik o'yinlar muloqot qobiliyatlarini rivojlantiruvchi, shuningdek, turli xil o'rghanish metodlarini o'z ichiga qamrab olishi lozim. Bundan tashqari tanlab olingan o'yinlarni amalga oshirishda alohida ehtiyojga ega o'quvchining imkoniyatlarini hisobga olish hamda qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Sun'iy intellekt bilan shaxsiylashtirilgan ta'lim metodida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish, har bir o'quvchining ehtiyojlari va qobiliyatini hisobga olgan holda shaxsiylashtirilgan o'quv rejalarini yaratishga qaratilgan. Bu har bir o'quvchiga individual yordam berish imkonini beradi.

Shuningdek, ta'lim jarayonida sensor (sezgi) texnologiyalari va o'quv qurilmalaridan foydalanish metodi orqali alohida ehtiyojga ega o'quvchilarga Brayl alifbosi yoki interaktiv sensorli texnologiyalar kabi o'rghanish qurilmalari orqali ma'lumotlarni yanada to'liq idrok etishda yordam berishga qaratilgan.

Bundan tashqari sanoat bo'yicha hamkorlikda o'qtish metodi mavjud bo'lib, bunda muayyan sohalarga mo'ljallangan o'quv dasturlarini yaratish uchun turli kompaniya va tashkilotlar bilan hamkorlik qilish. Bu o'quvchilarning mehnat bozorida talab qilinadigan ko'nikmalarni egallashiga yordam beradi va ularga jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi uchun imkoniyatlar yaratadi.

Inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish uchun ota-onalar va tarbiyachilarni qo‘llab-quvvatlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalarning ta’lim olishini yaxshiroq anglash va qo‘llab-quvvatlash uchun ota-onalar va ularga g‘amxo‘rlik qiluvchilar uchun o‘quv dasturlari va resurslarini ishlab chiqish ko‘zda tutiladi.

Shuningdek, inklyuziv ta’limda alohida ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarining sifatli ta’lim jarayonini amalga oshirish uchun inklyuziv ta’lim tizimi joriy etilgan umumta’lim muassasalarida yosh o‘qituvchilarini inklyuziv ta’lim borasidagi zarur bilim, ko‘nikma hamda malakalar bilan qurollantirish, kasbiy qo‘llab-quvvatlash, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga inklyuziv ta’lim-tarbiya berishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishni keng yo‘lga qo‘yish, pedagog xodimlar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyatga joriy qilish, inklyuziv ta’limda o‘qitish usullarini takomillashtirish, inklyuziv ta’lim dasturlari asosida zamonaviy darsliklar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yaratish va yanada takomillashtirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni kasb-hunarga o‘qitishni yanada rivojlantirish lozim [5].

Inklyuziv ta’limni tashkil etish va boshqarishda yuqorida keltirib o‘tilgan innovatsion metodlardan foydalanish ta’lim-tarbiya sifatini yanada yaxshilashga, samaradorligini oshirishga, o‘qituvchi va ta’lim oluvchilar (o‘quvchilar) o‘rtasida, shuningdek jamoa o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirishga, g‘oyaviy birlikka erishishga, maqsadni amalga oshirish jarayonida birlashishga, yagona maqsad sari intilishga, har bir o‘quvchining yashirin qobiliyat va iste’dodlarini aniqlashga va ularni ro‘yobga chiqarishga shart-sharoit yaratadi. Inklyuziv ta’lim tizimini joriy qilish hamda yanada rivojlantirish orqali mamlakatimizdagi barcha bolalar singari alohida ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarga ham ta’lim olish uchun teng imkoniyatni ta’milanadi, bolalarning individual xususiyatlaridan, avvalgi ta’lim yutuqlaridan, tili, madaniyati, ota-onalarning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan qat’iy nazar ta’limda muvaffaqiyatga erishishi uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi Toshkent. “Yuridik adabiyotlar publish”. 2023
2. Shavkat Mirziyoyev, Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi, “O‘zbekiston”. Toshkent -2022.
- 3.Baxromova, G. D. Q. (2022). Eshitishida muammolari bo’lgan o’quvchilarga o’nli kasrlarni o’qitish texnologiyasi. Science and Education, 3(5), 772-777.
- 4.ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ МЕНЕДЖМЕНТ КАК ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА УПРАВЛЕНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМ ПРОЦЕССОМ
ДТ Миралиева, РА Салихова Journal of Integrated Education and Research 2 (9), 41-44
- 5.Muratova, A. K. (2023). “MAORIF VA O ‘QUTG ‘UCHI” JURNALIDA ZAMONDOSH ADIBLAR IJODINING TALQINI. GOLDEN BRAIN, 1(9), 115-121.
- 6.Eshmurodova, G. X., & Xushmurodova, A. (2023). BOSHLANG’ICH SINFLARDA ONA TILI O‘QITISH METODIKASI MODULINI TAKOMILLASHTIRISHDA LOYIHAVIY TA’LIMNING AHAMIYATI. Science and innovation, 2(Special Issue 4), 399-400.